

HAMID OLIMJON IJODIDA MILLIYLIK

Ergasheva Aziza

*JDPU o'zbek tili va adabiyoti fakulteti
4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik vakili Hamid Olimjonning hayoti va ijodiy faoliyati yoritilgan. Shoirning bolalik yillari, tahsili, adabiy sahnadagi ilk qadamlaridan tortib, uning she'riyat va dramaturgiya sohalaridagi xizmatlari chuqur tahlil qilingan. Xususan, uning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan e'tibori, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan asarlari, shuningdek, adabiy jarayonga qo'shgan hissasi yoritilgan. Maqolada Hamid Olimjonning adabiy merosi bugungi yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni ham ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Hamid Olimjon, o'zbek adabiyoti, she'riyat, dramaturgiya, tarjima, milliy g'urur*

XX asr o'zbek adabiyotini A.Qahhor,Oybek ,G'.G'ulom,H.Olimjonlarsiz tasavvur qilish qiyin. Shuningdek,ular sho'ro tuzumining mafkuraviy tuzumi avj olgan bir murakkab vaziyatda yashagan bo'lsa-da,o'z so'zini, o'z fikrini asarlarida va she'rlarida aniq ayta oldi. Jumladan, baxt va shodlik kuychisi Hamid Olimjonni (Hamid Olimjonovich Azimov) ham bu siyosat chetlab o'tmadi.U o'zining yuksak g'oyalari bilan sug'orilgan asarlarida vatanparvarlik, millatga xizmat qilish ,ilmga da'vat yaqqol aks etib turadi.

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida dunyoga kelgan. U bobosi Azimbobo va onasi Komila aya mehr-muhabbatida va adabiyot ruhi singdirilgan muhitda voyaga yetdi. Yoshligidan badiiy adabiyotning jozibasiga mahliyo bo'lib, she'riyatga oshufta bo'lishida aynan shu ikki shaxsning ta'siri beqiyos edi. Bobosi bilan birgalikda she'riyat kechalarida xalq baxshilarining doston va termalarini tinglash orqali xalq og'zaki ijodiga va onasi aytib bergan ertaklar orqali esa she'riyatga cheksiz muhabbati uyg'ondi.Bu shoir ijodida o'ta xalqona ruh va ohangning shakllanishida zamin yaratib berdi.

Ammo 1916-yilgi Jizzax qo'zg'olonida jazo otryadi tomonidan cho'lga haydalgan begunoh xalq ichida yosh Abdulhamidning ham quvilishi uning bolalik xotirasida bir umrga muhrlanib qoldi. Bu voqea, nafaqat Abdulkhamidning shaxsiyatining shakllanishiga, balki uning ijodiy faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. U dastlabki yillarda yashagan sharoitlar, ayniqsa xalqning zulmga qarshi kurashlari va ularning azob-uqubatlari, uning dunyoqarashini va hayotga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

Jizzax qo'zg'oloni davrida yosh Abdulhamidning cho'lda o'tkazgan vaqti uning shaxsiyati va ichki dunyosining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Qiyinchiliklarga to'la

o'smirlik davri va tirikchilik uchun kurash uning ruhiyatiga iz qoldirdi. Shoir va adib sifatida, u o'zining ijodida odatdagi tarbiyaviy qadriyatlarni emas, balki insonga o'zgacha nigoh bilan qarashni, adolat va haqiqatni izlashni, yurakdan kelgan so'zlarni aytishni maqsad qilgan. Uning boshiga tushgan bunday qiyinchiliklar va xayolga solingan jasoratlar oqibatida yosh Abdulhamidda favqulodda qat'iyat, bir so'zlilik va maqsad sari ildam intilish kabi fazilatlar shakllandi. Ushbu fazilatlar shoirning shaxsiyatini belgilab beruvchi ustun vazifasini o'tadi. Shoir sifatida, Abdulhamid har doim ijtimoiy adolatni, xalqning haqqini himoya qilishni, zulmga qarshi kurashishni o'zining asosiy maqsadi sifatida ko'rgan.

Uning she'riyatida va adabiy asarlarida, xalqning azob-uqubatlari, o'zbek millatining og'ir kunlari va shu kunlarda ajralib chiqayotgan umidlar aks etgan. Shoir, faqat bir so'z bilan aytadigan, ammo uning ma'nosi va kuchi ulkan bo'lgan bir so'zlarni yaratishga intilgan. Bir so'zning qudrati va uning zaiflikni yengishdagi o'rni Abdulhamid she'riyatida o'zining to'liq yuksalishini topgan. Shu tariqa, Abdulhamid o'zining she'riyatida, nafaqat go'zallikni, balki haqiqiy hayotning og'ir va murakkab tomonlarini tasvirlashga muvaffaq bo'ldi.

Menga qondosh, jondosh bo'lgan el

Gado edi, qashshoq edi, xor.

Qalbi to'la nafrat,alam,zor.

Umrda hech shodlikning sasin

Tinglamagan,baxt ostonasin.

Odam bo'lib also ko'rmagan,

Sevinch bilan oshno bo'lmagan

O'lkada tun ko'rardi umr,

Go'shalarga tushmas edi nur.

(“Bashar quyoshiga”)

Shoir ijodiyoti va she'riyatiga yuzlanadigan bo'lsak,unda qanday omillar muhim ro'l o'ynaydi? Har bir ijodkor ma'lum bir davr farzandi va o'sha davr ruhi ijodkor asariga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Xususan, shoir Hamid Olimjon ijod qilgan murakkab bir davrni yodga olaylik.Shoir mafkuraviy hukmronlik va zo'ravonlik avj olgan bir vaziyatda o'zining xush ovozi bilan she'riyat maydoniga kirib keldi.Bu jarayonda ijodkor murakkab hayot doshqozonida qaynadi,toblendi va xalq bilan hamnafas bo'ldi. Tug'ma iste'dod sohibi tomonidan yangidan yangi ijod namunalari yuzaga keldi va xalq tomonidan sevib kutib olindi.

Ammo istiqlolgacha bo'lgan davrda shoir ijodiyotining barcha jihatlari ham to'g'ri tahlil qilinmagan. Sovet maktablarida o'quvchilarga adabiyot faqat badiiy san'at sifatida emas, balki sotsialistik jamiyatga xizmat qiluvchi targ'ibot vositasi sifatida ham o'rgatilgan.Bu davrda adabiy ta'lim mafkuraviy yo'nalishlarga bog'liq holda shakllangan bo'lib, H. Olimjon ijodi ham ushbu sharoitda talqin qilingan. Shoirning ijodiy merosi ko'pgina holatlarda sovet adabiy jarayoni doirasida talqin qilingan. Shu ma'noda,

shoirning “Ko’klam” nomli ilk to’plami haqida Sarvar Azimov quyidagi fikrlarni bildirib o’tgan:

“Tabiiy to’plamdagi she’rlarning fikriy doirasi ancha tor, badiiy saviyasi xiyla zaif. Lekin ularda zo’r samimiyat bilan adabiyotga kirib kelayotgan hassos hislar, chuqur kechinmalar egasi bo’lgan jur’atli va ehtirosli shoir nafasi ufurib turadi. Chunki yoshlikning romantik g’ururi bilan bitilgan bu asarlarda revolyutsiya va baxt, yangi turmush va badavlat hayot, xotin-qizlar ozodligi va yangi muhabbat motivlari baland ruh bilan kuylanadi.”¹⁹

Aslida ushbu to’plamdagi ilk she’riy namunalarida ham shoirga xos ko’tarinki ruh va jo’shqinlik, hayotsevarlik kayfiyati ufurib turadi. Ushbu to’plami orqali keng jamoatchilik e’tiborini qozongan bir paytda shoir endigina 20 yoshni qarshi olgan yigit edi. Hamid Olimjonning she’rlarida baxt va shodlik konseptlari ko’plab shakllarda namoyon bo’ladi. U baxtni faqat tashqi omillar bilan bog’lamay, balki uni insonning ichki dunyosidan, ruhiy yuksalish va ma’naviy erkinlikdan izlashni ta’kidlaydi. Shoir uchun baxt — bu faqat tashqi holatlarning yig’indisi emas, balki insonning o’ziga bo’lgan ishonchi, o’zini anglash va jamiyatda o’z o’rnini topishdan kelib chiqadigan ichki holatdir. Shu bilan birga, shodlik ham uning she’rlarida faqat o’zgalardan tomonidan taqdim etilgan baxtli holatlar sifatida emas, balki ichki uyg’unlik va o’zini topish yo’lida erishiladigan hissiyot sifatida qaraladi.

Istiqlolgacha bo’lgan davrda shoirning milliy ruhdagi asarlari emas, balki sovet mafkurasiga mos keladigan qismi ko’proq targ’ib qilingan. Shuningdek, Hamid Olimjon ijodida davr siyosiy talablari bilan yaratilgan o’rinlar ham uchraydi. Bu haqida adabiyotshunos D. Quronov shunday deydi: “Afsuski, bu iste’dod asosan nokerak ishlarga sarf bo’ldi... Nachora, aslida bu ham shoir qismati: murg’ak yoshidanoq sho’ro ta’sirida shakllangan, o’ziga singdirilgan yolg’on haqiqatlarga chin haqiqat deya yurakdan ishongan, o’smirlarga xos o’jar fidoyilik bilan davrning ziddiyatli g’oyaviy kurashlar maydoniga kirgan faol shaxs hayoti, ijodi, faoliyati tendensiya bo’lmasligi mahol edi...”²⁰ - degan edi.

Haqiqatdan ham Hamid Olimjon o’zining favqulodda o’jarligi bilan davr muhitida faol, ayni paytda kuchli shaxs ham edi. Kuchli bo’lmaganda shoirni ham zo’ravonlik avj olgan bir davrda ba’zi tengqurlari qatori davr tegirmoni o’z iskanjasiga olib ketgan bo’lar edi. Jumladan, “Davr murakkab edi, - deb yozadi Zulfiya, - ba’zilar o’zi bilan o’zi, ba’zilar esa atrofdagilar bilan bahslashardi. Qurilayotgan yangi zamon mashaqqatlari, shiddatlari orasida uning kelajagini juda yorqin tasavvur etish va ishonish hammaga ham birday nasib bo’lavermas edi. Hamid Olimjon esa ishonibgina qolmay, boshqalarni ham ishontira olish qobiliyatiga ega edi”²¹. Shoirning quyidagi shiddatli satrlari ham o’sha ishonchdan dunyoga kelgan:

Dunyo ostin -ustun bo’ldi,

¹⁹ S. Azimov. H.Olimjon. Tanlangan asarlar. Toshkent. 1951. – B. 67

²⁰ Dilmurod Quronov “Hamid Olimjonni bilasizmi?”

²¹ Zulfiya. Kamalak. Asarlar. 3-jild. Adabiyot va san’at nashriyoti. 1986. 12-bet.

Yangi dunyoning

Qarashlari o'tkir, Hujumlari zo'r

Yengilgan dunyoning bag'rini bosib

Yulduzga intilgan bu davr mag'rur.²²

Shuningdek, Hamid Olimjonning "Zaynab va Omon" dostoni davr talabi bilan, ya'ni qishloq xo'jaligini jamolashtirish mavzusida yozilgan bo'lsa ham, unda insoniy jihatlarga asoslangan, sevgi-muhabbat tuyg'ulari ulug'langan va axloq qattiq himoya qilingan.

"...u 30-yillar voqealigini tasvirlar ekan, qalamidan "bol tom-di", jo'shib baxt va shodlik kuyini chaldi. Bugun shoirning bu tasvir uslubi Stalin zamonini qatag'on va qirg'in davri, deb bilgan kishilar uchun erish tuyilishi mumkin. Ammo she'riyatning hayotdagi go'zallikni ulug'lash, kishilar qalbiga nafasat gavharlarini sochish vazifasi bor ekan, Hamid Olimjonning bu romantik tasvir uslubi ham yashash huquqiga ega".²³

Darhaqiqat, shoirning dostonni ravon til bilan, ajoyib musiqiylik asosida, fikr va mulohazalarini shoirona so'zlar bilan mohir ifodalashi ham asarga badiiy latofat baxsh etib turibdi. Serqirra iste'dod sohibining she'riyatga qo'shgan yana bir hissasi edi.

Zamon o'tgan, zamonlar o'tgan...

Odam yangi zamonga yrtgan.

Hamon sevgi odamga yo'ldosh,

Hamon sevgi qalblarga sirdosh.

Shidir bahor, ochilgan lola,

Shudir dilni qiynagan nola.

Shudir sabza, binafsha ko'klam,

Shudir qizning boshidagi g'am.

Shudir atir sochuvchi ra'no,

Shudir achchiq va shirin ma'no.

Shudir etgan qiz ko'ksini oq,

Va yigitning ko'kragini tog'.²⁴

("Zaynab va Omon")

Hamid Olimjon asarlarini tahlil qilish jarayonida ularning kimga bag'ishlangani-yu, qaysi mavzuda yozilganiga emas, balki shoirning tug'ma iste'dodining qay darjada ekanligiga, she'rlarida hayot va inson to'g'risidagi qarashlarining qay darajada teran ekanligiga qarab baho berish muhim sanaladi. Shoir shaxsiyati, xususan rahbarlik qobiliyati juda erta shakllanganligi, shuningdek, shoirlik mas'uliyatini ham chuqur his etganligi tahsinga sazovordir.

²² Hamid Olimjon. O'rik gullaganda. T.1990,64-bet

²³ XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O'qituvchi.1999

²⁴ H.Olimjon. Tanlangan asarlar. Toshkent. 1951.87-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. Azimov. H.Olimjon. Tanlangan asarlar.Toshkent. 1951. – 36-bet.
2. Dilmurod Quronov “Hamid Olimjonni bilasizmi?”
3. Zulfiya. Kamalak. Asarlar.3-jild T.Adabiyot va san'at nashriyoti. 1986.12-bet.
4. Hamid Olijon. O’rik gullaganda . T.1990,64-bet
5. XX asr o’zbek adabiyoti tarixi.Toshkent,O’qituvchi.1999
6. H.Olimjon. Tanlangan asarlar.Toshkent. 1951.87-bet.

